

XALQARO NORDIK
UNIVERSITETI

STUDENT'S GUIDE BOOK

TALABALAR UCHUN QO'LLANMA

Student's Guide Book

**Xalqaro Nordik universiteti rektori
Sh.Mustafakulov tahriri ostida**

Nashrga tayyorlaganlar:
Z. Xamidova, E. Umarov, M.Isaqova, R.Shodmonov

Xalqaro Nordik universitetining "Guidebook" sahifalari oliy o'quv yurtining faoliyati, ta'lim xizmatlari va imkoniyatlari yoritilgan muhim qo'llanma bo'lib, talabalikka ilk qadam qo'ygan yoshlar uchun barcha kerakli ma'lumotlar jamlangan.

Guidebook orqali universitetning qadriyatlari, missiyasi, maqsad va vazifalari, xorijiy hamkorliklar, xalqaro imkoniyatlar, ta'lim jarayonidagi qulaylik va innovatsiyalar bilan bat afsil tanishish mumkin.



INTILGANGA TOLE YOR!

WHERE THERE'S A WILL, THERE'S A WAY!



**Universitetimiz talabalari safida ekanligingizdan bag'oyat xursandmiz.
Xalqaro Nordik universitetining "Guidebook" sahifalariga xush kelibsiz!**

Aziz talabalar!

Oliy o'quv yurtimizning serqirra faoliyati, ta'lrim xizmatlari va imkoniyatlardan maksimal foydalanishni istagan har bir talaba uchun ushbu qo'llanmamizda barcha kerakli ma'lumotlar jamlangan.

Guidebook orqali universitetimizning o'ziga xos qadriyatları, missiyasi va eng asosiysi talabalarga qaratilgan maqsad hamda vazifalarimizni amalga oshirishda muhim bo'lgan ishonchimizni namoyish etishdan mammunmiz.

Biz universitetimizda ilm olish, o'sish-yuksalishingizni har doim har jihatdan qo'llab-quvvatlashga tayyormiz. Sifatli ta'lim berish uchun o'z faoliyatimizni milliy, mintaqaviy va xalqaro ko'lam va darajada kengaytirib bormoqdamiz.

Xorijiy hamkorliklarimiz, xalqaro imkoniyatlarmiz, ta'lim jarayonidagi qulayliklar va innovatsiyalar bilan ushbu qo'llanmamiz sahifalari orqali bat afsil tanishing.


o'ylaymizki, Xalqaro Nordik universitetining akademik faoliyati, ta'larning kredit tizimidan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etish, kutubxonadan foydalanish qoidalari, qo'shimcha o'quv kurslari haqida ma'lumot va tavsiflar olsangiz sifatli ta'lim olish yo'riqnomasiga ham ega bo'lasiz. Shuningdek, huquq va majburiyatlariningiz, universitetda o'qish odob-axloq qoidalari bilan ham tanishishingiz mumkin.

Aziz talabalar!

Ta'limga tashkil etish xususiyatlarimiz, faoliyat trayektoriyamiz bilan tanishish kelgusida bilimlaringizni ijodiy rivojlantirib borishda siz uchun muhim qo'llanma bo'lishi, shubhasiz. Barchangizga o'quv va ilmiy faoliyatingizda omad va muvaffaqiyatlar tilashdan mammunmiz!

Hurmat bilan,
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich
Xalqaro Nordik universiteti rektori
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I.UMUMIY QOIDALAR



UMUMIY QOIDALAR

Xalqaro Nordik universiteti (bundan buyon matnda Universitet deb yuritiladi) ning ushbu GUIDEBOOK qo'llanmasi universitetning Nizomi, ichki tartib-qoidalar hamda universitetning barcha tuzilmalariga tegishli talabalarni bevosita qiziqtiruvchi ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, Universitetning asosiy qoidalarini tavsiflaydi va institutsional qadriyatlari hamda standartlarini qamrab oluvchi muhim ma'lumotnoma bo'lib xizmat qiladi.

GUIDEBOOK universitet kengashi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi va unga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish kengash qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Talaba sifatida siz universitetning bir bo'lagi hisoblanasiz. Shuning uchun barcha talabalar o'qish jarayonlarida qanday harakatlanishga taalluqli qoidalar va majburiyatlar bilan tanish bo'lishlari juda muhim bo'lib, bu alohida mas'uliyat yuklaydi.

Ushbu qo'llanmada universitet talabalari uchun ularning ta'lim jarayonida bevosita duch keladigan savollari asosida tayyorlangan yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar, buyruqlar, nizomlar, qoidalar, o'qish tartiblari hamda boshqa kontentlar o'z aksini topgan.

Universitet o'z missiyasi va maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur deb hisoblaganda, bu yerda keltirilgan dastur-ko'rsatmalar va ish tartiblari vaqt-vaqt bilan o'zgarishi mumkin. Universitet bunday o'zgarishlarni oldindan ogohlantirmsdan kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Ta'lim jarayonida:

1. Talabalar axloq-odob kodeksiga to'liq riosa etishlari talab etiladi.
 2. Barcha talabalardan XNUning kutubxona materiallari, laboratoriya uskunalari, sinf jihozlari va darsdan tashqari maqsadlar uchun taqdim etilgan boshqa resurslarga nisbatan mas'uliyat bilan yondashishlari va ularni avaylashlari talab etiladi. Ushbu aktivlardan to'g'ri foydalanish va saqlash talabaning universitet qadriyatlari va maqsadlariga hurmat ko'rsatishini ifoda etadi.
 3. Universitet mulkidan ruxsatsiz foydalanish, o'zlashtirish yoki qasddan zarar yetkazish qat'yan man etiladi. Bunga tegishli jihozlardan noto'g'ri foydalanish, eskirish yoki shikastlanishga olib keladigan va universitet aktivlarining qiymatini yoki funksionalligini pasaytiradigan har qanday harakatlar kiradi. Ushbu qoidani buzish, qoidabuzarlik darajasiga qarab, jarimadan tortib, jiddiyroq akademik jazolargacha bo'lган qattiq intizomiy choralarga olib kelishi mumkin.
 4. Darslarda faol ishtirok etish akademik muvaffaqiyatga erishish uchun asosdir. Kunduzgi ta'lim shakli talabalari kasallik yoki favqulodda vaziyatlar kabi asosli sabablarni hisobga olmaganda, har bir o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etishlari talab etiladi. Surunkali dars qoldirish talabaga nisbatan akademik jazo qo'llashga olib kelishi mumkin.
- Sirtqi ta'lim shakli talabalari o'zlari uchun belgilangan muddatda dars jarayonlarida ishtirok etishlari kerak bo'ladi.
5. Barcha akademik topshiriqlar, shu jumladan loyihalar, esselar va kursga oid boshqa vazifalar belgilangan

muddatlarda LMS va HEMIS platformalariga topshirilishi kerak. Muddatidan kechikib topshirilgan vazifalar o'qituvchi tomonidan qabul qilinmasligi yoki yuqori bahoga loyiq ko'rilmasligi mumkin.

6. XNUda bilimga intilish, halollik va adolat tamoyillariga rioya qilish talab etiladi. Firibgarlik, plagiat yoki ko'chirmachilikning boshqa shakllari kabi akademik qoidabuzarlik bilan shug'ullanish bu tamoyillarni buzadi. Bunday huquqbazarliklar talabaning obro'siga putur yetkazadi. Shu sababli, akademik huquqbazarliklarning har qanday shakliga nisbatan XNUning akademik halollik siyosatiga muvofiq, jiddiyroq intizomiy choralarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan tegishli jazolar bilan javob beriladi.

7. Xalqaro Nordik Universiteti talabalarning individual xilma-xil kiyinishlarini qadrlaydi. Biroq, universitet binosida va uning atrofida XNU vakili sifatida tadbirlarda ishtirok etganda talabalardan akademik muhitga mos keladigan kiyimda bo'lislari talab etiladi. Talabalar shaxsiy uslub va nufuzli o'quv yurtida kutilgan xushmuomalalik me'yorlari o'rtasida muvozanatni saqlashga chaqiriladi.

8. Talaba kontrak to'lovlarini o'z vaqtida to'lash uchun javobgar bo'lib, to'lovni kechiktirish akademik jarayonlardan uzulishga olib kelishi mumkin.

9. Universitet tomonidan taqdim etilgan texnologiya yoki internetga kirishda talabalar maqbul foydalanish qoidalariga rioya qilishlari va nomaqbul yoki noqonuniy kontentga kirishdan qochishlari kerak.

10. Talabalar o'quv majburiyatlarini bajargan holda darsdan tashqari mashg'ulotlarda qatnashishga rag'batlanriladi hamda ular tomonidan

boshqariladigan har qanday tadbirlar yoki tashkilotlar universitet tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishi va tasdiqlanishi kerak.

11. Salomatlik va xavfsizlik qoidalariiga amal qilish, ayniqsa, laboratoriylar va ekskursiyalar paytida rioya qilish zarur. o'quv binosida noqonuniy giyohvand moddalar yoki boshqa turdag'i taqiqlangan buyumlardan foydalanish qat'yan man etiladi.

12. Talaba universitet xizmatlari hamda proffesor-o'qituvchilari haqida talabalarga xizmat ko'rsatish departamenti va fakultet dekanatiga fikr mulohazalarini taqdim etish huquqiga ega. Ularning muammolari talabalar bilan ishlash departamenti tomonidan o'rganib chiqiladi va bartaraf etish bo'yicha aniq tadbirlar amalga oshiriladi.

Universitetga tashrif buyurgan har bir talaba "TALABALAR JAMOASI"ga o'ziga xos xususiyatlarni olib keladi. Talabalik hayotida ishtirok etish siz uchun muhim.

**Universitet ma'muriyati sizga
omad va o'qishlaringizda
muvaffaqiyat tilaydi!**

II. UNIVERSITET TARIXI, MISSIYASI VA ASOSIY QADRIYATLAR



Xalqaro Nordik universiteti haqida nimalarni bilish muhim!?

2.1

Ushbu bo'limda sizlarga Shimoliy Yevropa davlatlari, xususan Finlyandiya oliy ta'lif modeliga asoslanib, Toshkent shahrida ochilgan ilk xalqaro xususiy oliygo - Xalqaro Nordik universiteti haqida ma'lumotlar taqdim etiladi. Sahifa orqali universitetda zamonaviy ta'lif olish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, maqsad va tamoyillar, yo'nalishlar haqida keng ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Keling, avval Xalqaro Nordik universitetining qanday tashkil etilgani va ko'rsatilayotgan ta'lif xizmatlari bilan tanishaylik!

1. Xalqaro Nordik universiteti - 2022-o'quv yilida Toshkent shahrida o'zbekiston-Finlyandiya tashqi ishlar vazirlarining 10-yig'ilishidagi kelishuv asosida tashkil topgan. Shimoliy Yevropa mamlakatlarining ta'lif sohasidagi ilg'or yutuqlariga asoslangan xususiy oliygohdir. 2022-yil 8-avgust kuni universitet № 034528 raqamli litsenziya asosida o'z faoliyatini boshlab yubordi.
2. Universitet fin va o'zbek hamkorligining ilk yirik natijasi, Finlyandiya oliy ta'lif tizimining o'zbekistondagi yagona aksi, Toshkentdagi birinchi ta'lif klasteridir.
3. Universitet **12 ta bakalavriat yo'nalishi (kunduzgi, sirtqi va maxsus sirtqi) va 6 ta magistratura mutaxassisligi** va **4 ta PhD ixtisosligi** bo'yicha zamonaviy mutaxassislar tayyorlamoqda.

4. Xalqaro Nordik universitetida o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining qarori asosida ilmiy daraja beruvchi **ILMIY KENGASH** tuzildi. Talabalarga magistraturani tugatgach, universitetda doktorantura va mustaqil izlanuvchilik institutiga kirib, ilmiy tadqiqotlarni davom ettirishlari uchun imkoniyat yaratildi.
5. XNUda o'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining №057211 raqamli Guvohnomasi asosida "**Nordic**" **ilmiy-amaliy elektron jurnali** nashr etilmoqda. Jurnalda o'zbek, rus, ingлиз ва fin tilida ilmiy maqolalar nashr etiladi.
6. Akademik faoliyatini rivojlantirish uchun o'quv qo'llanmalar va darsliklar yozmoqchi bo'lgan talabalar uchun "**Nordic**" **nashriyoti** ochildi. Bu borada universitet bilan hamkorlik qilinsa, nashriyot va bosmaxonalar qidirishga hojat bo'lmaydi.
7. Maktabda o'qib turib, XNUda ham o'qish mumkin! Universitet qoshida o'qishga kirishda qator imkoniyatlarni taqdim etuvchi "**FOUNDATION MAKTABI**" faoliyat ko'rsatmoqda. 9, 10 va 11-sinf o'quvchilari Xalqaro Nordik universitetining Foundation dasturini muvaffaqiyatli bitirib, 2-kursdan o'qishni davom ettirishlari mumkin!
8. Shimoliy Yevropa mamlakatlari kompaniyalari bilan o'rnatilgan shartnomalarga muvofiq, universitet talabalari manzilli ravishda "**Work and Travel**" dasturi orqali uch oygacha xorijga yuborilmoqda.

Asosiy maqsad - ta'lim jarayoniga zamonaviy fin pedagogik texnologiyalari va modellarini joriy etish, ochiq axborot-ta'lim muhitini rivojlantirish, oliy ta'lim – ilm-fan – ishlab chiqarish integratsiyasi asosida ilmiy-tadqiqotlar faoliyati va innovatsion-korporativ hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, malakali mutaxassislarni tayyorlash.

Universitet missiyasi - jahon, xususan fin ta'limiga uyg'un integratsiyalashuv asosida ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, respublika iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy qilishni rag'batlantirish, bilim va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishni o'z ichiga oladi.



Xalqaro Nordik universiteti o‘z oldiga qanday vazifalarni qo‘ygan?

2.2

- XNU Finlyandiya va boshqa rivojlangan shimoliy mamlakatlar uchun O‘zbekistonda inson kapitali va biznesni rivojlantirish, ta’lim, startaplar hamda xalqaro loyihalar bo‘yicha hamkorlik markazi, zamonaviy va innovatsion platforma vazifasini o‘taydi;
- xalqaro va mahalliy mehnat bozori uchun raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ularni aniq kasblar bo‘yicha malakasini oshirishga xizmat qiladigan qisqa muddatli kurslar tashkil etadi;
- finlyandiyaning Kareliya amaliy fanlar universiteti bilan hamkorlikda talabalarning qo’shma ta’lim dasturlarida o‘qishiga sharoit yaratadi;
- talabalarning qiziqish sohalari, qobiliyatlarini o‘rganib, guruhlarga ajratish, startap loyihalari, innovatsion g’oyalar tanlovlari, intellektual bahslarda ishtiroklarini ta’minlashga e’tibor qaratadi;
- Xorijiy ekspert va professorlar ishtirokida talabalar uchun maxsus mahorat darslari, seminar-treninglar tashkil etadi;
- Iqtidorli talabalarning maqolalarini **Scopus/Web of Science** bazalarida mavjud bo‘lgan ilmiy jurnallarda chop etishga ustoz-shogird an’analari orqali ko‘maklashish va boshqalar ham e’tibor markazida

Xalqaro Nordik universiteti o‘z oldiga qanday vazifalarni qo‘ygan?

2.2

- XNU Finlyandiya va boshqa rivojlangan shimoliy mamlakatlar uchun O‘zbekistonda inson kapitali va biznesni rivojlantirish, ta’lim, startaplar hamda xalqaro loyihalar bo‘yicha hamkorlik markazi, zamonaviy va innovatsion platforma vazifasini o‘taydi;
- xalqaro va mahalliy mehnat bozori uchun raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ularni aniq kasblar bo‘yicha malakasini oshirishga xizmat qiladigan qisqa muddatli kurslar tashkil etadi;
- finlyandiyaning Kareliya amaliy fanlar universiteti bilan hamkorlikda talabalarning qo’shma ta’lim dasturlarida o‘qishiga sharoit yaratadi;
- talabalarning qiziqish sohalari, qobiliyatlarini o‘rganib, guruhlarga ajratish, startap loyihalari, innovatsion g’oyalar tanlovlari, intellektual bahslarda ishtiroklarini ta’minlashga e’tibor qaratadi;
- Xorijiy ekspert va professorlar ishtirokida talabalar uchun maxsus mahorat darslari, seminar-treninglar tashkil etadi;
- Iqtidorli talabalarning maqolalarini **Scopus/Web of Science** bazalarida mavjud bo‘lgan ilmiy jurnallarda chop etishga ustoz-shogird an’analari orqali ko‘maklashish va boshqalar ham e’tibor markazida

Xalqaro Nordik universiteti qanday qadriyatatlarga ega?

2.1

Xalqaro Nordik universitetining ijtimoiy vazifasi turli sohalar uchun malakali, yuqori kasbiy va axloqiy talablarga javob beradigan, mintaqaviy, milliy va umuminsoniy qadriyatatlarga hissa qo'shadigan malakali intellektual va elita mutaxassislarini tayyorlashdan iboratdir.

Yashash sifati - jamiyatni barqaror rivojlantirishning asosiy maqsadi va uning natijasi sifatida namoyon bo'lib, kelajak avlodlar imkoniyatlarini kengaytirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Inson huquqlarini, ya'ni, shaxsiy fikr va so'z erkinligi, e'tiqod, xususiy mulk, xavfsizlik hamda hayotga munosabatini hurmat qilish.

Ijodiy erkinlik va kreativlik shaxsning o'zini o'zi anglashi hamda jamiyatning innovatsion rivojlanishining asosiy sharti hisoblanib, insonning intellektual, ixtirochilik va tadqiqot qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

O'quv, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy faoliyatda **professionallik va kompetentlik**.


Atrof-muhitga do'stona munosabat inson faoliyati samaradorligining tabiiy sharti sifatida amal qilib, bunda tabiiy resurslarga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lishni nazarda tutadi.

Insonlardagi **etnik, madaniy, ijtimoiy xilma-xillik** insonlar o'rtaсидаги мулодати ҳамда бир-бirlarini o'zaro tushunishларда асосий hayotiy quvvat manbai hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek xalqining boy an'analarini saqlash, rivojlantirish va bag'rikenglikni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zini o'zi boshqarish va jamoatchilik tashabbusi. Ijtimoiy javobgarlik hissini anglash hamda jamoaviy ahamiyatga ega munosabatlarda faol bo'lish.

Qonunlar va xalqaro shartnomalar, konstruktiv muloqot qoidalariga rioya qilish shaxslararo va xalqaro nizolarni tartibga soluvchi asosiy regulyator hisoblanadi.

III. UNIVERSITET HAQIDA MA'LUMOT



Universitet haqida top-faktlar

3.1

Xalqaro Nordik universiteti №034528 raqamli litsenziya asosida Toshkent shahrida faoliyat boshlagan

01.

Xalqaro Nordik universitetida dunyoning nufuzli oliygohlarida o'qigan ustozlar dars berishadi

02.

Xalqaro Nordik universitetida fin-o'zbek ta'lif modeli asosida zamonaviy jihozlangan auditoriyalarda dars beriladi

03.

Xalqaro Nordik universitetida "1+3", "2+2", "3+1" dasturlar bo'yicha Finlandiyada o'qish uchun 100 % gacha grantlar mavjud

04.

Xalqaro Nordik universiteti talabalari Shengen vizasi bilan "Work & Travel" dasturida qatnashadilar

05.

Xalqaro Nordik universitetida 3-kursda Finlandiyaga amaliyotga (Nokia, ISKU, Finnish Water Forum kompaniyalari) yuboriladi

06.

Xalqaro Nordik universiteti o'z talabalariga Shimoliy Yevropa mamlakatlaring nufuzli kompaniyalarida amaliyot taklif etadi

07.

Xalqaro Nordik universitetida o'qib, Finlyandianing Kareliya amaliy fanlar universiteti diplomini ham olish mumkin

08.

Xalqaro Nordik universitetida xorijlik, xususan, Finlyandiya o'qituvchilari dars beradilar

09.

Universitet haqida top-faktlar

3.1

Xalqaro Nordik Universiteti inson kapitali va biznesni rivojlantirish uchun muhim platforma

010.

Xalqaro Nordik universiteti talabalarga kelajak karyerasi uchun zarur bilim va ko'nikmalar beradi

011.

Xalqaro Nordik universitetida maktab o'quvchilari ham o'qishi mumkin! Universitetda 2-kursdan o'qishga kirish imkonini beruvchi "Foundation maktabi" faoliyat ko'rsatmoqda

012.

Xalqaro Nordik universitetida matematika va chet tillari bilimdonlari uchun qiziqarli klublar mavjud

013
*.

Xalqaro Nordik universiteti talabalar uchun xorijiy ekspert va biznes yetakchilari ishtirokida maxsus mahorat darslari kabi qizg'in muhit yaratadi

014.

Xalqaro Nordik universiteti iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalarini Scopus/Web of Science bazalaridagi ilmiy jurnallarda chop etishni rag'batlantiradi

015.

Xalqaro Nordik universiteti Finlandiyaning 1000 talikka kiruvchi Kareliya amaliy fanlar universiteti bilan hamkorlikda qo'shma ta'lif dasturlariga ega

016.

Xalqaro Nordik universitetida ta'lif va iqtisodiyotning turli sohalarida ish staji borlar uchun imtihonsiz o'qish imkoniyati taqdim etiladi

017.

XNUning sifatli ta'lif xizmatlari

3.2

NEGA BIZ?

Xalqaro Nordik universiteti bu – Shimoliy Yevropa davlatlari, xususan, Finlandiya oliy ta'lif modeli va ilg'or standartlariga asoslangan ta'lif xizmatlarini ko'rsatuvchi Markaziy Osiyodagi yagona xususiy universitet.

Universitet haqli ravishda ta'lif sohasida Finlyandiya-O'zbekiston hamkorligining ilk tamal toshi, Finlandiya oliy ta'lif tizimining O'zbekistondagi birinchi ta'lif klasteridir.

ZAMONAVIY TA'LIM YO'NALISHLARIMIZ:

Bakalavriat (kunduzgi)

- ✓ Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha);
- ✓ Moliya;
- ✓ Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar;
- ✓ Boshlang'ich ta'lif;
- ✓ Maktabgacha ta'lif;
- ✓ Maxsus pedagogika (Logopediya);
- ✓ Musiqa ta'limi;
- ✓ Psixologiya (amaliy psixologiya);
- ✓ Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili);
- ✓ Kompyuter injiniringi.

Finlandiya bilan qo'shma dasturlarimiz

- ✓ Xalqaro biznes;
- ✓ Sanoatni boshqarish.

Sirtqi ta'lif shakli:

- ✓ Iqtisodiyot;
- ✓ Moliya;
- ✓ Psixologiya (amaliy psixologiya);
- ✓ Maktabgacha ta'lif

Maxsus sirtqi ta'lif shakli (3 yil mehnat staji):

- ✓ Maktabgacha ta'lif.
- ✓ Psixologiya (amaliy psixologiya);
- ✓ Iqtisodiyot;
- ✓ Moliya

Maxsus sirtqi ta'lif shakli (5 yil mehnat staji):

- ✓ Musiqa ta'limi;
- ✓ Boshlang'ich ta'lif.

Magistratura mutaxassisliklari:

- ✓ Pedagogika va psixologiya;
- ✓ Ta'lif muassasalari boshqaruv;
- ✓ Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lif);
- ✓ Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lif);
- ✓ Jahon iqtisodiyoti;
- ✓ Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha).

Universitet respublikada yuqoridagi zamonaviy ta'lif yo'nalishlari bo'yicha kunduzgi va sirtqi ta'lif shakllarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, oliy ta'lif – ilm-fan – ishlab chiqarish integratsiyasini jadallashtirish vazifasini o'z oldiga qo'ygan.

Xalqaro Nordik universiteti nimasi bilan xalqaro!?

3.3

- 1 XNU dunyoda yetakchi fin kompaniyalari bilan strategik hamkorlikda ochilgan. Kareliya amaliy fanlar universiteti, "Nokia" transmilliy korporatsiyasi, "ISKU" kompaniyasi, "Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu (SYK)" umumta'lim maktabi, Solar Finland va Finnish Water Forum kabi o'nlab fin kompaniyalari bilan rasmiy hamkorlikda faoliyat yuritmoqda.
- 2 Xalqaro Nordik universiteti xalqaro imkoniyatlarga katta yo'l ochib, kunduzgi va sirtqi ta'lif talabalari uchun yozgi ta'tilda "Work and travel" dasturi asosida Finlandiya, Norvegiya, Daniya kabi Nordik davlatlarida 300 o'rini shi va sayohatni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarni imzolagan.
- 3 Finlandiyadagi 1000 talikka kirgan Kareliya UAS bilan qo'shma dastur asosida "**Xalqaro biznes**" va "**Sanoatni boshqarish**" yo'nalishlarida xalqaro mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Bu talabalarga Finlandiyada ta'lif olish yoki O'zbekistonda turib fin ta'limini egallash va xalqaro diplom (**double degree**) olish imkoniyatini taqdim etadi.
- 4 XNUga o'qishda kirib, talaba almashish dasturi (exchange) asosida Finlandiya, Italiya, Amerika, Yaponiya va Koreya kabi rivojlangan davlatlarda ta'lif olish mumkin. Bakalavriat va magistraturada Italiyaning dunyodagi 1400 ta universitet ro'yxatida 457-o'rinda turuvchi **Trento universitetida** o'qish imkoniyati mavjud.
- 5 Xalqaro Nordik Universiteti talabalarning bakalavriat bosqichidan so'ng hamkor xorijiy davlatlardagi yetakchi kompaniyalarda ishlashi, stajirovka yoki o'z biznes start-up loyihibarini amalga oshirishlarini qo'llab-quvvatlaydi.

6

Xalqaro Nordik universiteti xalqaro platforma vazifasini bajarib, ilk "O'zbekiston - Finlandiya xalqaro biznes forumi"ni o'tkazdi. Forumda ikki davlat vazirlik va idoralari, dunyoning yetakchi fin kompaniyalari - Nokia, Reka Cables, FinnPartnership, Honka, Kone, Suokone kabi 30 dan ortiq kompaniya rahbarlari va mutaxassislari, Finlyandiyaning XAMK amaliy fanlar universiteti hamda OAVlar vakillari ishtirok etdilar. Nufuzli anjumanda fin va mahalliy biznes vakillarining B2B, B2G uchrashuvlari tashkil etilib, o'zaro hamkorlik shartnomalari imzolandi, kelajakda istiqbolli loyihalar bo'yicha 10 dan ortiq kelishuvlarga erishildi.

7

7. Xalqaro Nordik universiteti tomonidan xorijiy va mahalliy pedagoglar uchun Finlandiyaga 4 marotaba ta'lrim safarları uyushtirildi. Universitet bazasida fin ta'lim ekspertlari ishtirokida yurtimiz ta'lim sohasi vakillari uchun doimiy tarzda onlayn va offlayn seminarlar o'tkazilmoqda. 100 nafardan ortiq qozog'istonlik pedagoglar, maktab direktorlari ishtirokida "Finlandiyada ta'lim: maktablarda raqamli infratuzilma va xalqaro PISA tadqiqoti doirasida o'qitish usullari" mavzusida xalqaro o'quv kurslarining 5 ta fasli o'tkazildi. finlandiyalik ekspertlar ishtirokida soha faollarida xalqaro malakalar shakllantirib borilyapti.

8

Xalqaro Nordik universitetida "Finlandiya ta'lim kechasi" o'tkazildi. Xalqaro Nordik universiteti va Kareliya amaliy fanlar universiteti o'rtaida bitim, Finlyandiyaning Milliy ta'lim agentligi va UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi o'rtaida Anglashuv memorandumlari imzolandi. Universitetda Mikayel Agrikola nomidagi "Fin tili va madaniyati markazi" faoliyati yo'lga qo'yildi.

9

XNU o'zbekistonlik talabalarning Finlyandiyada ta'lim olishlariga shart-sharoit yaratib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va yetakchi sohalarga Finlyandiyaning ilg'or texnologiyalarini joriy etishga puxta poydevor yaratmoqda. Shuningdek, 2 marotaba finlandiyalik

yoshlarning yurtimizga tashriflari uyuşdırıldı. Finlandiyada mashhur Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu, ya'nı Finlandiya-Xelsinki qo'shma ta'lif maktabi direktori va o'quvchi-yoshlarining yurtimizga va universitetga tashriflari yangi bilim, tajriba va qadriyatlar almashishga asos bo'ldi.

10

XNU O'zbekiston-Finlandiya huquqshunoslarining o'zaro tajriba almashishlariga hissa qo'shmoqda. O'zbekistonlik bir guruh huquqshunoslarning Finlandiya Adliya vazirligi, Bosh prokururasi va boshqa huquq-tartibot tashkilotlariga tashriflari amalga oshirildi. Shuningdek, XNU, Finlandiyaning Xelsinki universiteti Huquq ustuvorligi markazi (*Rule of law centre*), Toshkent davlat yuridik universiteti hamkorligida "Huquq ustuvorligini ta'minlash: Finlyandiya tajribasi" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi va bu huquqiy davlatning tajribalari keng o'rganildi.

11

Xalqaro Nordik universiteti ko'magida Finlyandiya Respublikasining ta'lif bo'yicha nufuzli ekspertlari viloyatlar hokimlarining ta'lif maslahatchisi faoliyatiga jalb etilmoqda. Savoniya universiteti professori, ta'limda AKTni joriy etish bo'yicha mutaxassis, Finlyandiya maktablarida yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha 25 yillik tajribaga ega Petri Lunaskopri Qashqadaryo viloyati hokimining ta'lif maslahatchisi etib tayinlandi. Finlyandiya va Yevropada o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ta'limni rivojlantirish bo'yicha 25 yildan ortiq tajribaga ega o'quv dizayneri, ta'lif maslahatchisi Hanne Koli Navoiy viloyati hokimining ta'lif bo'yicha maslahatchi sifatida faoliyat olib boryapti. Toshkent viloyati maktablarida ham ta'lif maslahatchisi fin tajribasini tatbiq etish bo'yicha qimmatli maslahatlari bilan faol ishtirok etmoqda.

XNU - xalqaro innovatsion platforma!

3.4

2022-yilning 27-may kuni Toshkent shahrida O'zbekiston-Finlandiya tashqi ishlar vazirlarining siyosiy maslahatlar bo'yicha 10-yig'ilishida Shimoliy Yevropa mamlakatlarining ta'lim sohasidagi ilg'or yutuqlariga asoslangan zamonaviy xususiy oliy ta'lim tashkiloti – Xalqaro Nordik Universitetini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Xalqaro Nordik Universiteti Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasining №034528 raqamli litsenziysi asosida o'z faoliyatini boshladi.

XNU Finlandiya va boshqa rivojlangan shimoliy mamlakatlar uchun O'zbekistonda inson kapitali va biznesni rivojlantirish, ta'lim, startaplar hamda xalqaro loyihamalar bo'yicha hamkorlik markazi va innovatsion platformaga aylanish yo'lida amaliy sa'y-harakatlar olib bormoqda.

Ilm har qanday yangilik asosi, taraqqiyotni kafolatlovchi muhim qurol. Bugun Xalqaro Nordik universiteti talaba-yoshlarning ilmiy salohiyatini yuksaltirishda bu quroldan unumli foydalanmoqda.

Universitet o'z ta'lim tizimida madaniy an'analar va milliy xususiyatlarni mujassam etish barobarida, Finlandiyaning noyob va muhim ta'lim tajribalariga tayanyapti hamda sog'lom raqobat sharoitida yuqori natijalarga erishishga astoydil kirishyapti.

Xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish tajriba almashish imkoniyatini kengaytiradi. Ayniqsa, aniq maqsad, aniq reja asosida ish olib borish sohaviy siljishlarga xizmat qiladi. Talabalar almashish, stajirovkaga jo'natish, "Work and travel" dasturlarini yo'lga qo'yish amaliyoti shular jumlasidan.

XNUning ilk qaldirg'ochlari – 30 nafar talaba yozgi ta'tilni Finlandiyada "Work and travel" dasturida qatnashmoqdalar. Finlandiyada maroqli va xavfsiz sayohat, ishonchli daromad talabalarga manzur bo'lmoqda.

Xalqaro Nordik Universiteti Finlandiya miqyosida

3.5

Kareliya amaliy fanlar universiteti, "Nokia" transmilliy korporatsiyasi, "ISKU" kompaniyasi, "Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu (SYK)" umumta'lim maktabi, Solar Finland va Finnish Water Forum kabi o'nlab fin kompaniyalari bilan rasmiy hamkorlikda tashkil etilgan.

Xalqaro Nordik Universiteti talabalarga bakalavriat bosqichidan so'ng hamkor xorijiy davlatlardagi yetakchi kompaniyalarda ishlash yoki o'z biznes start-up loyihalarini amalga oshirish imkoniyatini ham taqdim etadi.

XNUning asosiy strategik hamkorlaridan biri - Kareliya amaliy fanlar universiteti

Finlyandiya ta'limga tajribasi xususida nimalarni bilish kerak!?

O'zbekistonda Finlyandiyadek ilg'or davlat bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'limga tizimining o'ziga xos xususiyatlari hamda muvaffaqiyatlarini o'rganish kelgusida faqatgina yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan yangi metodikalarni yaratishda har jihatdan qo'l keladi.

Finlyandiyada ta'limga uchta asosiy maqsad:

- ✓ ta'limga oluvchiga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish;
- ✓ jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish;
- ✓ butun mamlakat bo'ylab ta'limga sohasida tenglikni ta'minlashga asoslangan.

XNU ta'limga dasturlari va metodologiyasi, nou-xau, ta'limga boshqarish tizimi, o'qituvchilar malakasini oshirish va boshqa sohalarda Kareliya UAS (<https://karelia.fi/en/about-us/>) bilan istiqbolli hamkorlik amalga oshirilmoqda.

Xalqaro Nordik Universitetida ta'limga olish - bu sizga qo'shma ta'limga dasturlari orqali finlyandiyalik professor-o'qituvchilardan dars olish imkoniyati demak!

Xalqaro hamkorimiz - Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu mustaqil qo'shma ta'lism maktabi

Biz klassik universitetlardan birmuncha farqli kuchli xorijiy hamkorlar ko'magida ta'limga yangi yondashuvlar va usullarni joriy etamiz!

1886-yilda tashkil etilgan **SYK** Finlyandiyadagi eng qadimgi qo'shma ta'lism maktabi, desak yanglishmaymiz. Bu mustaqil qo'shma ta'lism maktabi Finlyandiya modeli, ya'ni **K-12 maktabini** (bolalar bog'chasi, boshlang'ich maktab, o'rta maktab va litsey) tashkil etishni qo'llab-quvvatlaydi. Maktab o'z o'quvchilarini milliy imtihon yoki Xalqaro bakalavr diplomiga tayyorlaydi. Har ikkalasi ham o'quvchilarga universitetga kirish malakasi va imkonini beradi.

Ayniqsa, **IB (International baccalaureate – Xalqaro bakalavr)** talabalarga dunyodagi deyarli har qanday universitetga kirish uchun noyob imkoniyat beradi. Maxsus dasturlar 3 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, boshlang'ich va o'rta ta'limga barcha darajalarini o'z ichiga oladi. Maktabning barcha xodimlari oliy ma'lumotli yoki o'qituvchilik sertifikatlariga ega bo'lgan tajribali va malakali ustozlardir.

Maktabda o'quv yili avgust oyining o'rtalaridan 22-hafta oxirigacha davom etadi. O'qitish 190 kunga mo'ljallangan. Maktab zamonaviy jihozlar, san'at va musiqa, kompyuter xonalari, to'qimachilik ishlari xonalari, fan laboratoriyalari, kutubxona, lingafon, gimnaziya va suzish havzasini o'z ichiga oladi.

IBga kirish uchun yaxshi akademik standartlar talab qilinadi. Qabul avvalgi maktab qaydlari, o'qituvchilari va maktab direktorining baholari va suhbatga asoslanadi. Agar zarur bo'lsa, kirish imtihonlari tashkil etiladi.

SYK umumiyl o'rta ta'lim maktabida (3-9-sinflarda) ta'lim **fin tilida**, yuqori o'rta maktabda esa **milliy tilda** olib boriladi. Yuqori o'rta maktabida esa **ingliz tilida** o'qitiladigan IB bo'limi (10-12 sinflar) ham mavjud. Maktabning tuzilishi - umumta'lim maktabi 3-9-sinflardan iborat. Yuqori o'rta maktab xalqaro bakalavr dasturini o'z ichiga oladi. Jami 1150 nafarga yaqin o'quvchi ta'lim oladi.

2022-yil oktabr oyida SYK o'quvchilarining O'zbekiston, xususan XNUga birinchi tashrifi bo'lib o'tdi.

Xorijiy hamkorlarimizdan biri - Nokia transmilliy korporatsiyasi

Finlyandiyaning transmilliy texnologik korporatsiyasi hisoblangan **NOKIA** (<https://www.nokia.com/>) dunyoning 100 dan ortiq mamlakati bilan hamkorlik qiladi. Korporatsiya xodimlari soni 103 ming kishidan ortiqdir. Uning yillik daromadi 23 milliard dollarga teng. Fortune Global-500 ma'lumotlariga ko'ra, NOKIA jahondagi 500 ta eng yirik kompaniyadan biridir.

Korporatsiya 5G uyali aloqa tarmoqlari uchun yangi avlod standartlarini ishlab chiqaradi. Ayni paytda NOKIANing O'zbekistonda ham vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Ushbu yirik transmilliy metamakon korporatsiyasi Xalqaro Nordik universitetiga o'z strategik maqsadlarini amalga oshirishda asosiy hamkorlardan biridir. Bizness-inkubator, xorijda stajirovka, master-klass tashkil etishda yaqindan yordam beradi.

Shuningdek, talabalar va bitiruvchilarga O'zbekistonda va xorijda ish o'rgatish, startaplarni rivojlantirish va kelajakda universitet talabalarini ishga joylashtirish bo'yicha istiqbolli hamkorlik rejalashtirilgan.

Metamakonda dunyoning birligida rivojlanishiga yordam beradigan texnologiyalar yaratish, to'rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalari, shu jumladan 5G ni o'zlashtirish kerak.

Xalqaro Nordik universiteti va NOKIA hamkorligi kelgusida yanada kuchliroq hamjamiyatni yaratish, yosh kadrlarni o'qitish va salohiyatini birlashtirish orqali tizimlarga innovatsiyalar kiritish, bulutli mahalliy yechimlar taqdim etish, jamiyatning taraqqiyotiga katta turki bo'ladigan yangi ilovalar ustida ishslash imkonini beradi.

Finlyandiyaning ISKU kompaniyasi - hamkorimiz

Bizda ta'lrim standartlari Finlyandiya sifat mezonlariga har jihatdan muvofiqdir. Bu bitiruvchilarimizga nafaqat O'zbekiston, balki Finlyandiya va boshqa xorijiy davlatlarda faoliyat yuritish imkonini beradi!

Ta'lrim loyihamizni amalga oshirishda Finlandiyaning qator yirik kompaniyalarini ham ishtirok etishmoqda. Ulardan biri ISKU kompaniyasidir.

Finlyandiyaning ISKU kompaniyasi – zamonaviy texnologiyalarni an'anaviy hunarmandchilik bilan uyg'unlashtirgan holda butun dunyo uchun yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqaradi. Dunyoning 38 shahrida kompaniyaning do'konlari va ko'rgazmalar zallari mavjud.

ISKU ekologik toza materiallardan Finlyandiya dizayni asosida ta'lrim muassasalari, ish ofislari, sog'lioni saqlash, dam olish va boshqa turli muassasalar uchun xizmatlar hamda to'liq interyer yechimlarini loyihalashtiradi va ishlab chiqaradi.

Ushbu kompaniya oliygohimiz va maktab binolari dizayni, o'quv va boshqa jihozlari hamda aksessuarlarini fin talablari asosida tashkil etish bo'yicha strategik hamkorimizdir. Universitetimizga Finlandiyadagi eng yaxshi tajriba, dizayn va texnologiyalar asosida zamonaviy kampusni loyihalash va barpo etishda yordam beradi.

Ta'lrim sifati bilan bir qatorda, o'qish muhiti ham samarali ta'lrim olishga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, bizning Talabalar shaharchamiz O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo uchun chinakam fin o'quv binolari dizayni va o'quv xonalari, laboratoriylar hamda o'quv aksessuarlari bilan tanishish uchun ochiq osmon ostidagi ko'rgazma zali bo'lib xizmat qiladi.

Rasmiy hamkorlarimiz - "Solar Finland" va "Finnish Water Forum"

Talabalarni o'qish jarayonidayoq real mehnatga tayyorlash, ilmiy va texnologik jihatdan ilg'or mutaxassislarni yetishtirish, project-based o'qitish tizimini joriy etish maqsadlarida qator rasmiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishga erishdik.

Finlandiyaning yirik kompaniyalari talabalar amaliyotini tashkil etish, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasini yo'lga qo'yish, xalqaro startaplarni amalga oshirishda bevosita ko'maklashadi. Qolaversa, bitiruvchilarimiz stajirovka, amaliyot dasturlarida ushbu kompaniyalarning ishi va sohadagi keyslarni o'rganishadi, amaliy ish tajribasiga ega bo'lishadi.

Finland Water Forum (FWF) Finlandiya xususiy va davlat suv sektorining qo'shma tarmog'i sifatida turli tajribalarni o'zida jamlagan. Bu tajribalar suv bilan bog'liq global muammolarni hal qilish uchun samarali va keng qamrovli yechimlar topishda qo'l keladi. FWF ilmiy institutlar va birlashmalarning hamkorligi uchun platforma bo'lib xizmat qiladi.

FWF muhandislik va konsalting xizmatlari, institutsional va ma'muriy rivojlanish, ta'lif va tadqiqotlar bo'yicha ko'p yillik tajribaga ega. Sanoat, fan yoki menejment bilan bog'liq barcha savollarga ushbu forum faoliyati misolida javob olish mumkin.


"Solar Finland" guruhidagi kompaniyalarda esa quyosh energiyasi bo'yicha katta tajribaga ega mutaxassislar jamlangan. Quyosh panellari ishlab chiqarish, liniyalarni loyihalash va qurish kabi keng qamrovli ishlarni amalga oshiriladi. Kelgusida universitet va maktab binolarini ham fin tajribasi asosida quyosh energiyasi bilan ta'minlash rejalashtirilgan.

Xalqaro Nordik Universiteti va Finlyandiya kompaniyalarining hamkorligi - o'quv jarayonining eng muhim qismlaridan biridir. Talabalarga sanoat va biznesni boshqarish modellari haqida bilim olish, stajirovka orqali o'rganiladigan fanlar bo'yicha amaliy tajriba to'plash, kasbiy rivojlanishda aniq rejalar tuzishda fundamental bilimlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Kelgusida xalqaro uchrashuvlar va sessiyalar orqali hamkorlarimiz safini yanada kengaytirib boramiz.

Universitet tashkiliy tuzilmasi

3.6



Xususiy universitetning diplomi o'tadimi?

3.7

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 31-moddasiga muvofiq, Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga muvofiq nodavlat universitetlar bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom beriladi. Tegishli litsenziyaga ega nodavlat oliygochlarning diplomi bevosita tan olinadi. Ularning diplomlari davlat oliygohlari diplomi bilan tengdir. (huquqiy asos (<https://lex.uz/docs/5013007>)).

Xususiy universitetlardan davlat OTMlariiga o'qishni ko'chirish mumkinmi?

3.8

Ta'lim davrida xususiy universitetdan davlat oliygohiga imtihon asosida o'qishni ko'chirish imkoniyati ham mavjud.

Nodavlat
oliygohlardan boshqa
OTMlarga o'qishni
ko'chirish tartibi:
Nodavlat
oliygohlardan davlat
oliygohlariga o'qishni
ko'chirish xorijdan
o'qishni ko'chirish
tartibi bilan bir xil
asosda yilda bir
marotaba iyul-avgust
oylarida amalga
oshiriladi. O'qishni
ko'chirish belgilangan
test (kasbiy-ijodiy)
asosida o'tkazilib,
yetarli ball to'play
olgan talabalar o'qishi
ko'chiriladi.

Nodavlat oliygohdan boshqa nodavlat oliygoha o'qishni
ko'chirish tartibi talabani qabul qilayotgan oliygoh tomonidan
qonun doirasida (test, suhbat) belgilanadi.

O'qishni ko'chirishda kvota mavjud emas hamda yetarli ball
to'play olmagan talabalar super kontrakt asosida o'qishni
ko'chirishi mumkin.

O'qishni ko'chirish bo'yicha o'tish ballari yuqoridagi rasmida
(<https://t.me/nodavlattalim/307>) ko'rsatilgan



Шифр	Билим ва таълим соҳалари номи	Махсус синовлар бўйича ўтиш балли
100000 Гуманитар соҳа		
110000	Педагогика	94,0
120000	Гуманитар фанлар	94,0
130000	Математика	94,0
140000	Табиий фанлар	80,0
150000	Санъат	80,0
160000	Исломчинонлик	105,0
200000 Ижтимоий соҳа, иктисолада ва ҳуқук		
210000	Социология ва психология	105,0
220000	Журналистика ва ахборот	105,0
230000	Иктисолада	105,0
240000	Ҳуқук	140,0
300000 Ишлаб чиқариш-техник соҳа		
310000	Муҳандислик ишлаб чиқариш	75,0
320000	Ишлаб чиқариш технологиялари	75,0
330000	Компьютер технологиялари ва инфоматика	94,0
340000	Архитектура ва курилиш	75,0
350000	Алоқа ва ахборотларни, телекоммуникация технологиялари	94,0
400000 Кинолок ва сунъ үзказлиги		
410000	Кинолок, Үрмон ва балик ҳўjalиги	70,0
430000	Кинолок ҳўjalик техникиаси	70,0
440109	Ветеринария	80,0
450100	Ирригация ва мелиорация	70,0
500000 Согликин савдо ва ижтимоий таъминот		
510000	Согликин савдо	129,2
520000	Ижтимоий таъминот	94,0
600000 Хизматлар соҳаси		
610000	Хизмат кўрганиш соҳаси	80,0
620000	Транспорт	94,0
630000	Аэроф-мухит мухофизаси	94,0
640000	Ҳаётний фаннинг хонфенсилиги	70,0

@eduzuz

2022/2023 ўқув йилида хорижий ва
нодавлат олий таълим
муассасаларидан республика давлат
олий таълим муассасаларига
талабалар ўқишини кўчириш учун
ўтказиладиган маҳсус синовлар
бўйича ўтиш бўллари

IV.“ORIENTATION WEEK” O’QUV- TANISHTIRUV SEMINAR-TRENING DASTURI



O'tkazish
sanasi va
vaqtি:

2023-yil 3-7-oktabr

Trening
maqsadi:

Birinchi kursga qabul qilingan talabalar uchun universitetning ichki tartib-qoidalari, oliy ta'lim tizimida tahlil olishning usul va vositalari, mustaqil ta'lim komponenti, o'quv fanlaridan berilgan topshiriglarni o'z vaqtida HEMIS platformasiga yuklash, vazifalarni raqamli media-texnologiyalar imkoniyatidan foydalangan holda taqdim etish bilan bog'liq ma'lumotlarni berishdan iborat.

Ishtirokchilar: Birinchi kursga qabul qilingan barcha talabalar (*kunduzgi ta'lim shakli*).

Darslar	Mavzular	Vaqtি
3-oktabr, seshanba		
1.	Rektorning kirish so'zi va Universitet xodimlari bilan tanishuv	9.00 – 10.00
2.	"Campus tour" (R.Shodmonov, B.Olimjonov, Z.Uralbayev, Z.Xoshimov)	10.05 – 11.05
	Tanaffus, coffee break	11.05 – 11.20
3.	ECTS kredit-modul tizimining mohiyati. Universitetning akademik jarayoni va o'quv grafigi (O.Raximberdiev, E.Umarov)	11.20 – 11.40
4.	"Korporativ etika kodeksi" – talabalarning huquq va majburiyatları. Odob-axloq qoidalari (Z.Xamidova, N.Lutfullayeva)	11.45 – 12.20
5.	LMS va HEMIsdan foydalanish yo'llari (A.To'qliyev)	12.25 – 13.05
6.	"ID card" uchun suratga tushish (R.Shodmonov, A.Abdullayev, Sh.Olimov)	13.05 – 14.00
4-oktabr, chorshanba		
1.	"Work and travel" va Yevropa mamlakatlariiga sayohat taassurotlari (Universitetning 2-kurs talabalari)	09.00 – 10.00
2.	Intellektual o'yin – "KAHOOT" (Z.Uralbayev, J.Xoshimov, Tyutorlar)	10.05 – 11.05
	Tanaffus, coffee break	11.05 – 11.20
3.	O'quv faoliyati jarayonida talabalarning ta'lim maqsadlarini shakllantirish imkoniyatlari (N.Lutfullayeva, N.Yuldasheva, tyutorlar)	11.30 – 12.30

5-oktabr, payshanba		
1.	"Pizza party" (Z.Uralbayev, J.Xoshimov, Tyutorlar)	09.00 – 10.00
2.	Ta'limda mantiqiy, ilmiy, kreativ va tanqidiy fikrlash – HLDM (D.Miraliyeva, Q.Isaev)	10.05 – 11.05
	Tanaffus, coffee break	11.05 – 11.20
3.	Musiqiy bilim va tafakkur – inson kamoli vositasi. Musiqiy olamga nigoh (Q.Panjiev va Musiqa ta'limi kafedrasи jamoasi)	11.25 – 12.30
6-oktabr, juma		
1.	Shaxs kamolotida kitobxonlik madaniyati: mutolaa va tahlil (S.Shomurodova, A.Muratova)	9.00 – 10.00
2.	Ingliz tili so'zlashuvida talabalar bilan kasbiy yo'nalganlikning mohiyati, talabalarni bilim darajalariga qarab guruhlarga ajratish (Xorijiy tillar kafedrasи jamoasi)	10.05 – 11.05
	Tanaffus, coffee break	11.05 – 11.20
3.	Universitetning ijtimoiy tarmoqlari: faollikni namoyon etish va Universitet nufuzini oshirish yo'llari (R.Shodmonov, M.Isakova, Z.Uralbayev)	11.20 – 12.30
7-oktabr, shanba		
1.	Talabalar hayatida gadgetlarning o'mni: mustaqil ta'limni tashkil etishning psixologik jihatlari (N.Lutfullayeva, D.Miraliyeva)	09.00 – 10.00
2.	Kollaboratsiya: xorijiy hamkorlik aloqalari, ilg'or tajribalar, fin tilini o'rganishning ahamiyati va yangi gorizontlar (A.Tolibov, Johanna Järveläinen, Emil Jäntti)	10.05 – 11.05
	Tanaffus, coffee break	11.05 – 11.20
3.	"Zakovat" intellektual o'yini	11.30 – 13.30
4.	<u>Yakuniy qism.</u> Eng faol talabalarni taqdirlash (Universitet jamoasi)	13.30

V. UNIVERSITETNING ODOB-AXLOQ KODEKSIDA TALABALARNING FAOLIYATINI NAZARDA TUTUVCHI BO'LIMLAR



5.1. Professor-o'qituvchilar va talabalarning ta'limgarbiya jarayonidagi o'zaro munosabatlari

5.1.1. Ta'limgarbiya jarayonidagi o'zaro munosabatlari

44-modda. Professor-o'qituvchilar va talabalarning ta'limgarbiya jarayonidagi o'zaro munosabatlari "Ustoz-shogird" milliy an'analariga asoslanishi lozim.

45-modda. Professor-o'qituvchi auditoriyaga kirganida barcha talabalar o'rinalidan turib salomlashishlari, so'ngra o'z joylarini egallashlari lozim.

46-modda. Dars mashg'ulotlari vaqtida uyali aloqa vositalaridan foydalanish barcha uchun taqiqlanadi.

47-modda. Talaba o'zining nojo'ya harakatlari bilan dars mashg'ulotlariga xalaqit bersa, professor-o'qituvchi yuzaga kelgan vaziyat haqida dekanatni xabardor qilib va uning ruxsati bilan bunday talabani mashg'ulotlardan chetlatishi mumkin.

48-modda. Talabada professor-o'qituvchi bilan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari vaqtida muloqot qilish zarurati bo'lsa, unda talaba quyidagi qoidalarni, ya'ni:

- professor-o'qituvchi talaba bilan dars jadvaliga muvofiq mashg'ulotlarda, maslahat soatlarida, mustaqil ishlarni, reyting nazoratini topshirishda yoki o'zaro kelishuv bo'yicha belgilangan vaqtida shug'ullanishini;
- o'zi muloqot qilmoqchi bo'lgan professor-o'qituvchining lavozimi, ismi, otasining ismini aniq bilishi shart.

49-modda. Talaba oldindan kelishilmagan holda professor-o'qituvchining huzuriga kelsa, umumiy yoki o'zaro kelishilgan maslahat soatiga kech qolib kelgan yoki kelmagan bo'lsa, professor-o'qituvchidan hatto qisqa vaqt suhbatlashishni talab qilishga ham haqli emas.

50-modda. Ayrim hollarda talabalar professor-o'qituvchini almashtirish iltimosi bilan murojaat qilishlari mumkin. Buning uchun jiddiy sabablar (qo'pollik, ta'magirlilik, professor-o'qituvchining aybi bilan mashg'ulotlar o'tkazilishidagi muntazam uzilish hollarini isbotlovchi dalillar) ko'rsatilishi va u bo'yicha guruhning yagona fikri mavjud bo'lishi shart.

51-modda. Professor-o'qituvchi bilan talaba o'rtasida nazorat turlariga oid topshirishga doir ziddiyat kelib chiqqan hollarda, talaba maxsus komissiyaga topshirish uchun ruxsat berish iltimosi bilan kafedra mudiriga murojaat etishi mumkin. Bunda murojaat asoslangan bo'lishi shart. Bunday masalalar kafedra mudirining taqdimnomasiga binoan fakultet dekani tomonidan hal etiladi.

5.2. Professor-o'qituvchilar, talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari

5.2.1. Talabalarning o'zaro munosabatlari

54-modda. Talabalarning o'zaro munosabatlari – yagona jamoa, o'zaro hurmat va e'tibor, do'stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillari amal qilishi lozim.

55-modda. Talabalar munosabatlarda inson qadr-qimmatiga humatsizlik qilish, shaxsiyatini kamsitish, o'zganining intellektual mulkini o'zlashtirib olish, qo'pollik, behayo so'zlar ishlatish, mushtlashish, o'zgalarga ma'naviy, moddiy yoki jismoniy ziyon yetkazish qat'yan man etiladi.

5.3. Professor-o'qituvchilar va talabalarning odob-axloqqa oid majburiyatları

5.3.1. Talabalarning odob- axloqqa oid majburiyatları

57-modda. Talabalarning odob-axloqqa oid majburiyatları

Universitet hududida: hududga kirishda talabalik guvohnomasini va beyjikini ko'rsatib kirish;

- hududni ifoslantirmaslik va chiqindilarni faqat joylardagi urnalarga tashlash;
- ustozlarga duch kelganda salom berish;
- o'quv mashg'ulotlari vaqtida hududda sababsiz yurmaslik;
- universitet mulki (ko'char va ko'chmas mulki, o'simlik va hayvonot dunyosi va hokazolar)ga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish;
- talabalar dress codega va o'zaro suhbat odoblariiga rioxqa qilish;
- universitetga odamlar diqqatini tortadigan tanani shaffof ko'rsatib turadigan, yelka, ko'krak va qorin, shuningdek tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan hamda haddan ziyod tor kiyimda yoki diniy ibodat libosida, metall zanjirlar, to'g'nog'ichlar, tanaga turli munchoqlar qadagan holda, sport kiyim va poyabzalida kelishi taqiqlanadi;
- mutasaddilarning ruxsatisiz turli reklama vositalarini osmaslik va tarqatmaslik;
- maishiy tinchlikka rioxqa qilish;
- narkotik va psixotrop moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlar iste'mol

qilinishi hamda tarqatilishiga qarshi kurashish. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, yuqoridaq holatlar haqida tegishli tashkilotlarga o'z vaqtida xabar bermaslik javobgarlikka sabab bo'lishi alohida qayd etiladi;

- talaba fanlar doirasida berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarib, maqola va tezislarni o'zi yozadi. U boshqalarga topshiriqlarni bajarishga yoki maqola va tezislar yozishga (tijorat yoki boshqa yo'l bilan) yo'l qo'ymaydi.

Auditoriyada: uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yish;

- dars vaqtida gaplashmaslik;
- jihozlarga madaniy munosabatda bo'lism, partalarga yozmaslik;
- qog'oz va boshqa keraksiz narsalarni qoldirib ketmaslik;
- ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslik.

Umumi ovqatlanish joylarida: taomlarni olishda navbat tartibiga riosa qilish;

- tirbandlik holatida ustozlar, ayollar, yoshi kattalarga hurmat ko'rsatish;
- ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik;
- umumi ovqatlanish soxobchasida belgilangan tartib-qoidalarga riosa qilish.

Axborot resurs markazida: Axborot-resurs markazi xodimlari bilan xushmuomalada bo'lism;

- kitoblar va jihozlarga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lism;
- baland ovozda so'zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslik;
- qog'oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik;
- kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariiga riosa qilish.

Talabalar turar joylarida: mavjud jihozlarni asrash, ularga zarar yetkazmaslik;

- elektr energiyasi, gaz va suv resurslaridan tejamkorona (oqilona) foydalanish;
- sanitariya va gigiyena xonalardan foydalanish qoidalariiga amal qilish;
- tartib-qoidalarga qat'iy riosa qilish.

Sport majmularida: sport majmuasiga xos bo'lgan kiyim va poyabzallarda kirish;

- sport inventarlariga nisbatan madaniy munosabatda bo'lism;

- mashg'ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirish;
- sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariiga rioya qilish.

Ommaviy tadbirlar o'tkazish joylarida: o'rindiq va boshqa jihozlarga nisbatan madaniy munosabatda bo'lish;

- ommaviy tadbirlar vaqtida hushtak chalmaslik, baqirmaslik, tadbir tugashidan oldin sababsiz chiqib ketmaslik;
- uylab o'tirmaslik, o'rindiqlarga yotib olmaslik, bir-biri bilan gaplashmaslik, yon-atrofdagilarga xalaqit bermaslik;
- turli davralarda o'zining namunaviy xulqi va bilimi bilan universitet haqida yuksak ijobiy taassurot hosil qilishga intilish;
- doimo komillikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarni chuqur anglash;
- universitet manfaati, uning sha'ni va shonli an'analarini, obro'si hamda nufuzi to'g'risida qayg'urish, ularni saqlab qolishga jonkuyarlik qilish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

5.4. Professor-o'qituvchi va talabalar odob-axloqida man etiladigan holatlar

5.4.1. Talabalar odob-axloqida man etiladigan holatlar

59-modda. Talabalar odob-axloqida man etiladigan holatlar

- professor-o'qituvchilarga qo'pollik qilish, mashg'ulotlar vaqtida asossiz gapirish;
- professor-o'qituvchi bilan boshqalarning bahosini muhokama qilish;
- yolg'on gapirish, g'irromlik yoki professor-o'qituvchilarni chalg'itish bilan bo'g'liq har qanday xatti-harakatlar qilish;
- xodimlar va o'z o'rtoqlariga nisbatan humatsizlik qilish;
- yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir boshqa tartib-taomillarni bajarish vaqtida chetdan yordam olish, o'zgalarga yordam ko'rsatish;
- boshqa shaxslar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o'z nomidan topshirish;
- mashg'ulotlarni o'tkazib yuborish yoki kechikib kelish;
- mashg'ulotlar vaqtida professor-o'qituvchining ruxsatisiz auditoriyadan chiqib ketish;
- boshqa talabaning sa'y-harakatlariga qasddan ziyon yetkazish;
- moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanganligini turli yo'llar bilan ko'z-ko'z qilish qat'iyan man etiladi.

VI. ID-KARTANI OLİSH TARTIBI (TALABALIK GUVOHNOMASI)




ID-karta talabalarning universitet talabasi ekanligini tasdiqlovchi hujjati hisoblanib, universitet platformalaridan foydalananish imkonini beradi.

Talabalikka tavsiya etilganlar o'zi haqidagi barcha ma'lumotlarni fakultet dekanatiga taqdim etishi zarur. Shundan so'ng rasmga tushish uchun **Media xizmatlari departamentiga** murojaat qilish mumkin.

ID-karta tayyor bo'lganidan so'ng **dekanatdan** olish mumkin.

Talabalar uchun xos ID raqam shakllantirish tartibi



NFC chip bilan jihozlangan va davlat platformalariga integratsiyalangan IDga ega talabalar kartasi



VII. KONTRAKT TO'LOVLARI VA BOSHQA MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR



Kontrakt to'lov shartnomalari, usullari va muddatlari

7.1

1. Sharhnomani olish tartibi qanday?

Qabul bo'llimidan olinadi yoki talabalikka qabul qilinganlarning telefon raqamiga 3700 dan xabar boradi, ushbu xabardagi havola orqali sharhnomani olish mumkin.

2. 2-bosqichlar qanday sharhnomasi oladi?

2-bosqichga o'qishni ko'chirganlar va universitetning 2-bosqich talabalari HEMIS platformasidan olishlari mumkin bo'ladi. Rasman universitet kanalida yoki dekanat tomonidan xabar beriladi.

3. Sharhnomasi muddati qachongacha amal qiladi?

Sharhnomasi olingandan so'ng 15 bank ish kunida o'tadi. 1-bosqichlar uchun sharhnomanining 3.1-bandida kontrakt summasi, 3.3 bandida qachongacha amal qilishi keltirilgan. 2-bosqichlar uchun esa 2.2 bandida keltirilgan.

4. To'lovni kontraktini qay tarzda to'lash mumkin?

To'lovnini bo'lib to'lash imkoniyati bor, lekin, sharhnomada keltirilgan muddatlarga amal qilish lozim.

5. Bank sharhnomasi yuzasidan talabani qaytarib yubora oladimi?

Bank 3 tomonlama sharhnomasi so'rabi talabani qaytarib yubora olmaydi, talaba 2 tomonlama sharhnomasi bilan to'lov qila oladi, lekin 3 tomonlama sharhnomasi beriladi. Mahalladan, hokimiyatdan yoki Yoshlar Ittifoqi orqali to'lasa, 3 tomonlama sharhnomasi beriladi. Yana bir vaziyatda tashkilotda oylik ish haqqidan qaytarib qolish sharti bilan emas, balki, tashkilotning o'zi to'lasa, shu vaziyatlarda 3 tomonlama sharhnomasi beriladi.

6. Universitet tomonidan bu borada yordam beriladimi?

Bu masalalar bo'yicha ota-onasidan cijragan, nogironligi bor, boquvchisi yo'q talabalar ariza bilan rahbariyatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat o'rganib chiqiladi.

7. To'lovnini ko'p o'tkazganlar diqqatiga!

Agarda kontrakt to'lovi ko'p to'langan bo'lsa o'qish jarayoni boshlanmagan bo'lsa qaytarib beriladi. Ta'lim krediti bo'lsa bankka yoki talabaning o'zi to'lovnini amalga oshirgan bo'lsa ariza bilan

murojaat qilgan taqdirda uning o'z shaxsiy kartasiga tashlab beriladi. Lekin o'quv jarayoni boshlangan vaqtida shartnomani bekor qilmoqchi bo'lsa, o'qigan muddatiga nisbatan mutanosib ravishda hisoblanib, qolgan summasi qaytarib beriladi. Agar talaba kontrakt to'lovini to'liq o'tkizmasdan o'qishni bekor qilmoqchi bo'lsa, buxgalteriya o'qigan vaqtini hisoblab, universitet aytgan summani qoplab berishi lozim.

8. Shartnoma muddati o'tishi mumkinmi?

Shartnoma muddati o'tadi. Universitetdan yangi shartnoma olish lozim bo'ladi va yangi shartnoma asosida kontrakt to'lanishi lozim. Agarda eski shartnoma bilan to'lov qilingan bo'lsa, ariza yozib, kontrak summasini yangi shartnomaga o'tkazib berishini so'rashi lozim.

9. Yozgi maktabda o'qiyotganlar dekanatga yoki o'quv departamentiga uchrashishi lozim hamda buxgalteriya ushbu kvitansiya orqali summasini chiqarib beradi.

Kuzgi qabuldagilar uchun kontrakt to'lovini to'lash tartibi

Birinchi kursga qabul qilingan bakalavr va magistrlar uchun – shartnomada kelishilgan xizmatlar haqi «Buyurtmachi» tomonidan «Ta'llim muassasasi»ning hisob raqamiga pul mablag'larini ko'chirish (o'tkazish, to'lash) yoki boshqa qonuniy yo'l bilan to'liq (100 foiz) miqdorda amalga oshirilishi mumkin. Xizmatlar haqi «Buyurtmachi» tomonidan «Ta'llim muassasasi»ning hisob raqamiga bo'llib-bo'llib to'langanda o'quv yili uchun belgilangan to'lov miqdorining kamida 50 foizi mazkur shartnoma taraflar o'rtasida imzolangan sanadan boshlab 15 (o'n besh) bank ish kuni ichida amalga oshirilishi lozim. Belgilangan to'lov miqdorining 100 foiz to'lovga nisbatan qolgan qismi (foizi) 2023-yil 30-sentyabrgacha (30-sentyabr kunida ham). 2023-yil 1-oktyabr sanasida «Buyurtmachi»ning «Ta'llim muassasasi»ning oldidagi to'lov bo'yicha majburiyatlari to'liq hajmda o'talgan bo'lishi shart.

Ikkinci va undan yuqori kursga o'tgan bakalavr va magistrlar uchun – shartnomada kelishilgan xizmatlar haqi «Buyurtmachi» tomonidan «Ta'llim muassasasi»ning hisob raqamiga pul mablag'larini ko'chirish (o'tkazish, to'lash) yoki boshqa qonuniy yo'l bilan to'liq (100 foiz) miqdorda amalga oshirilishi mumkin. Xizmatlar haqi «Buyurtmachi» tomonidan «Ta'llim muassasasi»ning hisob raqamiga bo'llib-bo'llib to'langanda o'quv yili uchun belgilangan to'lov miqdorining kamida 50 foizi 2023-yil 31-yanvargacha (31-yanvar kunida ham) amalga oshirilishi lozim. Belgilangan to'lov miqdorining 100 foiz to'lovga nisbatan qolgan qismi (foizi) 2023-yil 30-sentyabrgacha (30-sentyabr kunida ham). 2023-yil 1-oktyabr sanasida «Buyurtmachi»ning «Ta'llim muassasasi»ning oldidagi to'lov bo'yicha majburiyatlari to'liq hajmda o'talgan bo'lishi shart.

Qishki qabuldagilar uchun kontrakt to'lovini to'lash tartibi

Birinchi kursga qabul qilingan bakalavr va magistrler uchun – shartnomada kelishilgan xizmatlar haqi «Buyurtmachi» tomonidan «Ta'lif muassasasi»ning hisob raqamiga pul mablag'larini ko'chirish (o'tkazish, to'lash) yoki boshqa qonuniy yo'l bilan to'liq (100 foiz) miqdorda amalga oshirilishi mumkin. Xizmatlar haqi «Buyurtmachi» tomonidan «Ta'lif muassasasi»ning hisob raqamiga bo'lib-bo'lib to'langanda o'quv yili uchun belgilangan to'lov miqdorining kamida 50 foizi mazkur shartnoma taraflar o'rtaida imzolangan sanadan boshlab 15 (o'n besh) bank ish kuni ichida amalga oshirilishi lozim. Belgilangan to'lov miqdorining 100 foiz to'lovga nisbatan qolgan qismi (foizi) 2023-yil 30-sentyabrgacha (30-sentyabr kunida ham). 2023-yil 1-oktyabr sanasida «Buyurtmachi»ning «Ta'lif muassasasi»ning oldidagi to'lov bo'yicha majburiyatlari to'liq hajmda o'talgan bo'lishi shart.

Ikkinchi va undan yuqori kursga o'tgan bakalavr va magistrler uchun – shartnomada kelishilgan xizmatlar haqi «Buyurtmachi» tomonidan «Ta'lif muassasasi»ning hisob raqamiga pul mablag'larini ko'chirish (o'tkazish, to'lash) yoki boshqa qonuniy yo'l bilan to'liq (100 foiz) miqdorda amalga oshirilishi mumkin. Xizmatlar haqi «Buyurtmachi» tomonidan «Ta'lif muassasasi»ning hisob raqamiga bo'lib-bo'lib to'langanda o'quv yili uchun belgilangan to'lov miqdorining kamida 50 foizi 2023-yil 31-yanvargacha (31-yanvar kunida ham) amalga oshirilishi lozim. Belgilangan to'lov miqdorining 100 foiz to'lovga nisbatan qolgan qismi (foizi) 2023-yil 30-sentyabrgacha (30-sentyabr kunida ham). 2023-yil 1-oktyabr sanasida «Buyurtmachi»ning «Ta'lif muassasasi»ning oldidagi to'lov bo'yicha majburiyatlari to'liq hajmda o'talgan bo'lishi shart.

TA'LIM MUTAXASSISLIKHLARI VA YO'NALISHLARI BO'YICHA KONTRAKT TO'LOVI SUMMALARI

Nº	Yo'naliш kodi	Yo'naliш kengayтma nomi	Bosqich	Ta'lim shakli	O'quv yili	O'quv yili davomiyligi	O'quv kursi	Kontrakt summasi (mln)	Summa so`zda
1	IQ-2324B	60310100-Iqtisodiyot	Bakalavr	Kunduzgi	2023-2024	4	1	18	O'n sakkiz million
2	M-2324B	60410400-Moliya	Bakalavr	Kunduzgi	2023-2024	4	1	18	O'n sakkiz million
3	JI-2324B	60411900-Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar	Bakalavr	Kunduzgi	2023-2024	4	1	18	O'n sakkiz million
4	SB-2324B	60411200-Sanoat menejmenti	Bakalavr	Kunduzgi	2023-2024	4	1	22	Yigirma ikki million
5	XB-2324B	60411300-Xalqaro biznes	Bakalavr	Kunduzgi	2023-2024	4	1	22	Yigirma ikki million
6	BT-2324B	60110500-Boshlang'ich ta'lim	Bakalavr	Kunduzgi	2023-2024	4	1	14	O'n to'rt million
7	MT-2324B	60110200-Maktabgacha ta'lim	Bakalavr	Kunduzgi	2023-2024	3	1	14	O'n to'rt million
8	MPL-2324B	60112700-Maxsus pedagogika (Logopediya)	Bakalavr	Kunduzgi	2023-2024	4	1	14	O'n to'rt million
9	MI-2324B	60111300-Musiqa ta'limi (sirtqi)	Bakalavr	Kunduzgi	2023-2024	4	1	14	O'n to'rt million
10	PA-2324B	60310900-Psixologiya (amaliy psixologiya)	Bakalavr	Kunduzgi	2023-2024	4	1	17	O'n yeti million
11	XT-2324B	60111800-Xorijiy til va adabiyoti	Bakalavr	Kunduzgi	2023-2024	4	1	18	O'n sakkiz million
12	KI-2324B	60610500-Kompyuter injiniringi	Bakalavr	Kunduzgi	2023-2024	4	1	22	Yigirma ikki million
13	PP-2324 M	70110102-Pedagogika va psixologiya	Magistratura	Magistratura	2023-2024	2	1	20	Yigirma million
14	TTBT-2324 M	70110501-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)	Magistratura	Magistratura	2023-2024	2	1	18	O'n sakkiz million
15	TTMT-2324 M	70110201-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)	Magistratura	Magistratura	2023-2024	2	1	18	O'n sakkiz million

MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR

46

TA'LIM MUTAXASSISLIKHLARI VA YO'NALISHLARI BO'YICHA KONTRAKT TO'LOVI SUMMALARI

Nº	Yo'nalish kodи	Yo'nalish kengaytma nomi	Bosqich	Ta'lim shakli	O'quv yili	O'quv yili davomiyligi	O'quv kursi	Kontrakt summasi (mln)	Summa so'zda
16	TMB-2324M	70110103-Ta'lim muassasalari boshqaruvi	Magistratura	Magistratura	2023-2024	2	1	20	Yigirma million
17	JI-2324M	70411901-Jahon iqtisodiyoti	Magistratura	Magistratura	2023-2024	2	1	22	Yigirma ikki million
18	IQ-2324M	70310102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	Magistratura	Magistratura	2023-2024	2	1	20	Yigirma million
19	IQS-2324B	60310100-Iqtisodiyot (sirtqi)	Bakalavr	Sirtqi	2023-2024	4	1	12	O'n ikki million
20	MS-2324B	60410400-Moliya (sirtqi)	Bakalavr	Sirtqi	2023-2024	4	1	12	O'n ikki million
21	BTS-2324B	60110500-Boshlang'ich ta'lim (sirtqi)	Bakalavr	Sirtqi	2023-2024	4	1	11	O'n bir million
22	MTS-2324B	60110200-Maktabgacha ta'lim (sirtqi)	Bakalavr	Sirtqi	2023-2024	3	1	11	O'n bir million
23	PAS-2324B	60310900-Psixologiya (amaliy psixologiya)	Bakalavr	Sirtqi	2023-2024	4	1	11	O'n bir million
24	IQMS-2324B	60310100-Iqtisodiyot (sirtqi)	Bakalavr	Maxsus sirtqi	2023-2024	4	1	12	O'n ikki million
25	MMS-2324B	60410400-Moliya (sirtqi)	Bakalavr	Maxsus sirtqi	2023-2024	4	1	12	O'n ikki million
26	BTMS-2324B	60110500-Boshlang'ich ta'lim (sirtqi)	Bakalavr	Maxsus sirtqi	2023-2024	4	1	11	O'n bir million
27	MTMS-2324B	60110200-Maktabgacha ta'lim (sirtqi)	Bakalavr	Maxsus sirtqi	2023-2024	3	1	11	O'n bir million
28	MIMS-2324B	60111300-Musiqta'limi (sirtqi)	Bakalavr	Maxsus sirtqi	2023-2024	4	1	12	O'n ikki million
29	PAMS-2324B	60310900-Psixologiya (amaliy psixologiya)	Bakalavr	Maxsus sirtqi	2023-2024	4	1	11	O'n bir million

Mavjud stipendiyalar, grantlar va moliyaviy yordam dasturlari haqida tafsilotlar

Talabalar uchun beriladigan grantlar to'g'risida qisqacha ma'lumot

Xalqaro Nordik universitetida grantlar faqat bakalavriat kunduzgi ta'lim yo'nalishlari uchun beriladi. Universitetda grantlarning ikki xil turi mavjud bo'lib, bular davlat granti va universitet granti hisoblanadi. (2023/2024-o'quv yilida umumiylar 20 ta grant o'rinnari ajratilgan.)

Davlat tomonidan beriladigan grant o'rinnari aynan ma'lum bir yo'nalish uchun amal qiladi, bular quyidagicha taqsim qilingan:

- Kompyuter injiniringi ta'lim yo'nalishi uchun – 5 ta;
- Psixologiya ta'lim yo'nalishi uchun – 5 ta.

Universitet tomonidan beriladigan grantlar bo'lsa 2 turga bo'linadi, ya'ni 100 % lik 5 ta va 50 % lik 5 ta. Mazkur grantlar birinchi o'quv yili uchun beriladi, talabalar keyingi o'quv yillarda ham grant o'rinnarni saqlab qolishlari uchun GPA ko'rsatkichi to'liq a'lo baholar bilan tugallangan bo'lishi kerak bo'ladi.

O'qish davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda nomli davlat stipendiyalariga nomzod sifatida topshirish mumkinmi?

Albatta mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida» 2008-yil 13-oktyabrdagi 226-son qaroriga asosan Oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari O'zbekiston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarida butun o'qishi davomida faqat a'lo baholarga o'qiyotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan oxirgi kurs talabalariga tayinlanadi va to'lanadi.

O'qish davomida davlat tomonidan e'lon qilinayotgan startap loyihalar tanlovida ishtirok etish mumkinmi?

Ishtirok etish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6260-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagagi "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 133-son qarorlariga muvofiq o'z ilmiy ishlama yoki g'oyalaringiz bilan ishtirok etishingiz mumkin.